



Tashqi savdo

(dastlabki ma'lumot)


2018 yil yanvar-fevral

Viloyatimizda tashqi savdo aylanmasi 2018 yil yanvar-fevral oylarida 37,6 mln. AQSh dollarini, shu jumladan eksport 16,1 mln. AQSh dollarini va import 21,5 mln. AQSh dollarini tashkil qildi. Tashqi savdo aylanmasi saldosini minus -5,4 mln. AQSh dollarini tashkil etdi, shundan MDH davlatlari bilan 5,7 mln. AQSh dollari va boshqa davlatlar bilan -11,1 mln. AQSh dollari tashkil etdi.

Oxirgi yillarda viloyatimizning eksport tarkibida qariyb barcha tovarlar va xizmatlar guruhlari bo'yicha o'sish kuzatilmoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlari eksportining o'tgan yilning shu davriga nisbatan 215,5 foizni, rangli metal mahsulotlari 173,5 foizni, mashina va asbob-uskunalar 186,6 xizmatlar eksporti 384,1 foizni, boshqalar 113,7 foizni tashkil qiladi.


Tovar va xizmatlarning eksport tarkibi, jamiga nisbatan foizda




Oziq-ovqat mahsulotlari importining o'tgan yilning shu davriga nisbatan 87,1 foizni, mashina va asbob-uskunalar 295,8 foizni, rangli metal mahsulotlari 13,0 foizni, qora metal mahsulotlari 29,3 foizni, ish va xizmatlar importi 89,5 foizni tashkil qildi.

Tashqi savdo

Tovar va xizmatlarning import tarkibi, jamiga nisbatan foizda



2018 yil yanvar-fevral oylarida viloyatimiz tashqi savdo aylanmasida eng katta ulushga ega bo'lgan mamlakatlar, foizda





Tashqi savdo MDH davlatlari orasida Rossiya, Qozog'iston, Tojikiston, Ukraina va Qirg'iziston davlatlari tashqi savdo aylanmasida asosiy xamkorlar hisoblanib, ularning jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 26,4 foizni tashkil qildi, boshqa davlatlar orasida Xitoy, Turkiya, Koreya Respublikasi, Germaniya, Eron, Afg'oniston davlatlari hisoblanadi va ularning ulushi 66,5 foizni tashkil qildi.

Tashqi savdo

Jami eksport-import hajmida eng katta ulushga ega bo'lgan mamlakatlar, foizda

Eksport

Import



Eksport bo'yicha MDH davlatlari orasida Rossiya, Qozog'iston, Tojikiston va Ukraina davlatlari eksport aylanmasida asosiy xamkorlar hisoblanib, ularning jami eksport aylanmasidagi ulushi 47,5 foizni tashkil qildi, boshqa davlatlar orasida Xitoy, Turkiya, Afg'oniston, Eron, Vetnam, Iroq davlatlari hisoblanadi va ularning ulushi 44,9 foizni tashkil qildi.

Import bo'yicha MDH davlatlari orasida Rossiya, Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston davlatlari import aylanmasida asosiy xamkorlar hisoblanib, ularning jami import aylanmasidagi ulushi 10,1 foizni tashkil qildi, boshqa davlatlar orasida Xitoy, Koreya Respublikasi, Turkiya, Germaniya, Eron davlatlari hisoblanadi va ularning ulushi 85,4 foizni tashkil qildi.

Meva-sabzavot mahsulotlari eksport xajmi 3,3 mln. AQSh dollarini tashkil qildi, yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 210,7 %ga oshdi.

Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari,
tadbirkorlikni rivojlantirish, tashqi iqtisodiy
faoliyat va savdo statistikasi bo'lim boshlig'i
S.Xaitmatov